

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SARF-XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Qurbanova Sayyora Ilyasovna

Rustamqulova Madina Avazbekovna

Akbarova O'g'ilshaxon Mamadaliyevna

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarini moliyalashtirishning samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarda xarajatlarni kamaytirish orqali bolalarga ko'rsatilayotgan marketing xizmatining xorijiy tajribalarini maktabgacha ta'limga olib krish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zları:** DMTT moliya tashkilotlari, byudjet mablag'lari, maktabgacha ta'lism menejmenti, sarf-xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ko'plab islohotlarning biri maktabgacha ta'lism tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarini moliyalashtirishda yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish talab qilinadi. Unga ko'ra, moliyalashtirishdan ko'proq manfaatdor tomonlar aniqlanadi. Davlat moliyalashtirishining sxemasi ishlab chiqiladi, moliyalashtirishdagi asosiy muammolar va ularning kelib chiqish sabablari o'rganiladi, moliyalashtirish mexanizmi oldiga qo'yilgan talablar belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori bilan tashkil etilgan maxsus komissiyaga maktabgacha ta'lism tashkilotlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tartibini o'rganish hamda sifat talablariga va sanitariya-gigiyena normalariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor ovqatlar yetkazib berishning shaffof hamda soddallashtirilgan tizimini yaratish bo'yicha takliflar, oziq-ovqat bilan ta'minlashga mablag' ajratilishida ko'plab muammolar bo'lgan. Shuningdek, ajratilgan mablag'lar evaziga xarid qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini tarbiyalanuvchilarga yoki bemorlarga to'liq yetkazib berilishiga, mahsulotlarning sifatiga hech kim kafolat bermagan. Moliya organlari hamda byudjet mablag'lari taqsimlovchilari ushbu muammolarga yetarlicha e'tibor qaratmagan. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Moliya vazirligi tomonidan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishdagi muammolarni aniqlash yuzasidan joylarga chiqqan holda o'rganishlar olib borildi. O'rganish natijalariga ko'ra byudjet tashkilotlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda bir qator kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Xususan, MTTLarni belgilangan me'yollar asosida oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun byudjetdan yetarlicha mablag' ajratilmagani, davolanuvchilar va tarbiyalanuvchilar uchun ovqat tayyorlanishining sifati va vitaminli ozuqalar (meva, sabzavot va boshqa mahsulotlar) bilan ta'minlash darajasi talablariga javob bermasligi kuzatildi. Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish, joylarga yetkazish, ovqatlar tayyorlash tizimida shaffof mexanizmlar o'rnatilmagani oqibatida turli kamomad va o'zlashtirishlarga yo'l qo'yilayotgani, qish-bahor mavsumi uchun byudjet tashkilotlari oziq-ovqat mahsulotlarini g'amlash va ularni saqlash masalalari ma'lum bir mezon va me'yollar bilan tartibga solinmagani aniqlandi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, ijtimoiy soha tashkilotlarini oziq-ovqat bilan ta'minlashning shaffof mexanizmlarini joriy etish, shuningdek oziq-ovqat bilan ta'minlash tadbirlarini moliyalashtirishni yaxshilash yuzasidan tegishli choralar ko'rilmoxda.

Jumladan, ovqatlanish xarajatlariga byudjet mablag'larini ajratishda moliya organlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Moliya vazirligi tomonidan 2018

yilda har bir tarbiyalanuvchi yagona yondashuv asosida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun mablag' ajratish tizimi joriy etildi. Bunda byudjet tashkilotning turi, kontingenti; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning MTTda bo'lish vaqt; oziq-ovqat bilan ta'minlashning sanitariya me'yorlari va boshqalar kabi mezonzarga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, 2018 yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalar qamrovini oshirish maqsadida (ota- onalarning talablariga asosan) 9 soatlik guruhlarga qatnaydigan bolalar uchun ota- onalar to'lovi sezilarli ravishda kamaytirildi. Masalan, qishloq joylardagi bog'chalarda 90 ming so'm o'rniغا 60 ming so'm, tuman markazlarida esa 85 ming so'm etib belgilandi. Shuningdek, viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarda joylashgan bog'chalarda ham viloyat markazlariga nisbatan qariyb 10 foiz pasaytirilgan miqdorlar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-dekabrda № 991-sonli O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Qaror matniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning hududiy organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 21,0 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Ta'lim bo'yicha hamkorlik granti - beg'araz texnik ko'magidan foydalangan holda - Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish loyihasi doirasida 2018-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun jami 6,453 mln. dollarlik tovarlar va xizmatlar yetkazib berildi.

Loyha doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tovar va xizmatlarni xarid qilish O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Ushbu tovar va xizmatlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga taqsimlash, ulardan maqsadli foydalanishni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi ma'lum muddatda Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish loyihasi doirasida 2018 yildan boshlab amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha -Yo'l xaritasini ishlab chiqdi va tasdiqladi.

2017 yil 9 sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da qaror imzolandi. Hujjatda maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan mavjud tizimli kamchiliklar ko'rsatilgan, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining maktabgacha ta'lim sohasidagi faoliyati qoniqarsiz deb topilgan. Maktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi tizimi mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapti. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining hozirgi holati bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishning past darajasi bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmayapdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning oziq-ovqat, moddiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishda ham jiddiy kamchiliklar kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtida respublikada 6 893 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat olib borayotgan bo'lib, ularni moliyalashtirishga faqat 2016-yilda Davlat byudjetidan 1,6 trillion so'm ajratilgan. Ushbu sohada sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan 130 mingdan ortiqmutaxassislar mehnat qilmoqda. Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy- texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Xususan, 2018-yil 1-

yanvardan boshlab Toshkent, Nukus shaharlari va respublikaning viloyat markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi mактабгача та’лим ташкilotlarini tashkil etish belgilandi. Davlatimiz rahbari tomonidan tashabbus qilingan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi zamonaviy va hammabop maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish uchun investorlarga yer uchastkalari, bo’sh turgan binolarni 50 yil muddatga beg‘araz ajratishni ko‘zda tutadi. Investorlar tashkil etilayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat ta’lim talablariga, sanitariya-gigiyena va boshqa normalarga rioya qilish, kelishuv amal qilishining butun muddati davomida faoliyat yo‘nalishini saqlab qolish, shuningdek, maktabgacha ta’lim xizmatini ko‘rsatish narxining maqbulligi va arzonligini ta’minalash uchun mas‘ul bo‘lishi nazarda tutilmoxda. Bunda investorlarga keng soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalar, shuningdek, imtiyozli kreditlar taqdim etiladi. Shuningdek, Toshkent shahridagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tadbirkorlik subyektlari bilan tegishli talablarga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor ovqatlarni yetkazib berish to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishga eksperiment tariqasida ruxsat berildi. Mazkur eksperimentlar yakunlari bo‘yicha Respublikaning boshqa hududlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ovqatlanishni tashkil etish tartibini joriy etish masalasi ko‘rib chiqilishi nazarda tutilmoxda. Qaror bilan ushbu sohadagi dolzarb muammolarni hal qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha —Yo‘l xaritasi ham tasdiqlandi. Maktabgacha ta’lim tizimini tanqidiy o‘rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Komissiya tomonidan maktabgacha ta’lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo‘shliqlar, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil etish, shuningdek, maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosatini samarali ro‘yogha chiqarishga to‘sinqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o‘rganish ishlari amalga oshiriladi. Bunda zarur infratuzilmani yaratish va maktabgacha ta’limning xususiy sektorini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda, sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishga davlat talabları, shu jumladan, maktabgacha yoshdagı bolalarni uyg‘un rivojlantirish sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqiladi. Qarorda vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilishni soddalashtirish ham o‘z ichiga olgan tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutildi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tizimini kengaytirish maqsadida Komissiyaga mayjud amaliyot va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash topshirildi.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadrlar bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu tizimga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig‘ilish o‘tkazildi, tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Davlatimiz rahbari raisligida 2017-yil 16-avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur MTTlarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi -Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori, 30-sentyabrdagi -Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi.

Ularda maktabgacha ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihatlari belgilab berildi. Xususan, yangi tuzilgan Maktabgacha ta’lim vazirligi oldiga shu soha bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni matabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish darajasi pastligi malakali kadrlarni jalg qilish imkonini bermasdi. Maktabgacha ta’lim vazirligi bu borada ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘lishini ma’lum qildi. Soha xodimlarining ish haqi oshirilib, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha aniq manzilli chora-tadbirlar ko‘riladi. Bundan ko‘zlangan maqsad – bolalarni tarbiyalash va sohani har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislarini jalg qilishdir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish va ularni mamalakatimizda tutgan o‘rnini oshirish hozirgi kundagi muhim masalalardan biridir.

## Foydalanilgan adabiyyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Taqnidiy tahlil, qatiy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” O‘zbekiston. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019 yil 8 may PQ-4312 sonli qarori.
4. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sun “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi: [www.mdo.uz](http://www.mdo.uz)